

Feruza AKBARXODJAYEVA,
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: feruzaviprustam@inbox.ru

O'zDSMI dotsenti, f.f.d G.Isakova taqrizi asosida

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA TIBBIYOT TERMINLARINING VOQELANISHIGA DOIR QARASHLAR

Annotatsiya

Ommaviy axborot vositalarida sog'liqni saqlash borasidagi ma'lumotlarning taqdim etilishida, tibbiy terminlarning to'g'riligi, aniqligi muhim o'rin tutadi. Shunga ko'ra, sog'liqni saqlash va kasalliklar haqidagi dolzarb xabarlarni keng ommaga tezkorlikda yetkazish usullari va xususiyatlarini yoritish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Maqolada ushbu turdagi tibbiy ma'lumotlarning turli ko'rinishda taqdim etilishi va ma'lumotlar sifatini oshirish maqsadida tibbiyot mutaxassislari hamda jurnalistlar o'rtasidagi hamkorlikni yaxshilash yo'llari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: terminologiya, OAV, tibbiyot, tibbiy terminlar, sog'liqni saqlash, jurnalist, muammo, tahlil.

ВЗГЛЯДЫ НА БЫТОВАНИЕ МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНОВ В СМИ

Аннотация

Корректность и точность медицинских терминов играют важную роль в подаче медицинской информации в средствах массовой информации. Соответственно, актуальным вопросом сегодняшнего дня является уточнение методов и особенностей оперативного донесения актуальных новостей о здоровье и заболеваниях до широкой общественности. В статье речь ведется о путях улучшения сотрудничества медицинских специалистов и журналистов в передаче данного вида медицинской информации и повышения качества представляемых информации.

Ключевые слова: терминология, СМИ, медицина, медицинские термины, здравоохранение, журналист, проблема, анализ.

VIEWS ON THE ACTIVITY OF MEDICAL TERMS IN THE MEDIA

Annotation

Correctness and accuracy of medical terms play an important role in the presentation of medical information in the media. Accordingly, a pressing issue today is to clarify the methods and features of promptly communicating current news about health and diseases to the general public. The article discusses ways to improve cooperation between medical specialists and journalists in transmitting this type of medical information and improving the quality of the information presented.

Key words: terminology, media, medicine, medical terms, healthcare, journalist, problem, analysis.

Kirish. Tilga bilim olish va fikrlashning eng muhim quroli sifatida qaraladi. U – individning ijtimoiylashuvda zaruriy shart va vosita, til kishilar faoliyati davomida paydo bo'ladi, tilsiz madaniyat, ijtimoiy me'yor va qoidalarni o'zlashtirib bo'lmaydi, tilsiz insonning o'zini ham tasavvur etib bo'lmaydi. G.V.Gegelning tabiri bilan aytganda, tilning ijtimoiyligi uning kommunikativlik, bilish, informativlik va pragmatiklik kabi vazifalarini belgilaydi [5].

Mediakommunikatsiya inson faoliyatining til vositasida amalga oshiradigan sohasidir. Axborotning tovar sifatidagi ta'siri o'quvchining mustaqil tafakkur qilishida ko'rina boshlaydi. Axborot iste'molchilarining qarashlari, qadriyatlar va idealarni shakllantirish masalalari o'quvchi ongida axborot olamini tartibga solish yo'llarini izlashni, axborot bilan muomala qilishning yangi usul va ko'nikmalari tizimini ishlab chiqish va shakllantirishni taqozo etmoqda [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida tibbiy terminlarini tadqiq etishga bag'ishlangan ishlar mavjud, jumladan, Wijnen-Meijer, H.Herre, G.Banay, J.Katarzyna, G.Zenon kabi olimlarning tadqiqotlarida tibbiy terminlar shakllanishining ilmiy-nazariy asoslari ochib berilgan.

Tibbiy terminlarning turli tillar kesimidagi tadqiqi J.Bagana, S.M.Velichkova, V.F.Novodranova, V.V.Ivanov, G.D.Arnaudov kabi tilshunos olimlar tomonidan olib borilganligini aytib o'tish joiz. Jumladan, tilshunos V.V.Ivanov tibbiy terminlarning semantik xususiyatlarini nemis tili misolida [6], G.D.Arnaudov esa tibbiy terminlarni lotin, rus, ingliz, fransuz va nemis tillari misolida [2] tadqiq etgan.

O'zbek tilshunosligida tibbiyot terminlarining lingvistik xususiyatlari borasida A.Husanov, A.Qosimov, Z.Mirahmedova, F.Abdulxairova, A.Madvaliyev, F.Qosimova kabi olimlar izlanishlar olib bordi. Masalan, A.Madvaliyevning tibbiyot terminologiyasining sohaviy va izohli lug'atlarda berilishiga doir [8], F.I.Abdulxairovaning tibbiyot atamalarining metaforik manzarasi borasidagi [1] va F.X.Qosimovanning tibbiy terminologiyaning taraqqiyot tendensiyalariga bag'ishlangan izlanishlari [10] alohida o'rin tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi. OAV tili tadqiqotchilari hozircha o'zgarishlarni kuzatish va qayd qilish, yangilanishlarni ro'yxatdan o'tkazish va faol lug'atni to'ldirish bilan cheklanib qolmoqdalar. Media matnlarda davom etayotgan lingvistik jarayonlar munosabati bilan tadqiqotchilarning til amaliyotini nazariylashtirish va keyinchalik o'rganish uchun evolyusiya bosqichlarini qayd qilishga urinishlari dolzarb bo'lib bormoqda. Zero, mamlakatimizda OAVga hozirgi lisoniy jarayonlarning markazidagi borliq sifatida qaralmoqda, unga milliy tilning hozirgi zamondagi modeli sifatida munosabatda bo'linmoqda, adabiy leksika bilan doimiy ta'sirlashuvda ekanligi asoslanmoqda.

Tahlil va natijalar. Keyingi yillarda OAV shaxs tafakkuriga jadal ta'sir ko'rsatuvchi verbal va noverbal axborot hajmining muttasil ortishini ta'minlovchi tuzilmaga aylandi. Bu o'z navbatida murakkablashayotgan dunyoni bilish usullarining yangi kompleks geterogen kognitiv tuzilmalarni shakllantirish asosida o'zgartirilishiga olib keladi. Bu kognitiv tuzilmalar shiddat bilan kengayotgan axborot makonini o'zlashtirish uchun zarur, natijada shaxslar tafakkurining mediatizatsiyasi sodir bo'ladi. Mediatizatsiya deganda, ommaviy axborot vositalari tomonidan tayyorlangan polisemiotik, polimodal mahsulotning shaxs tafakkuriga ta'siri tushuniladi. Bu ta'sir shaxs tomonidan voqelikni bilish va tasavvur qilishning spetsifik mediyaviy ko'p kodli tuzilmalarning o'zlashtirilishida ifodalanadi [11].

Tibbiy terminologiyaning OAV aks etishi tibbiyot sohasi va media sohasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, ayniqsa, tibbiy ma'lumotlarning aniqligi, foydalanish imkoniyati va aholining salomatlik va kasallik haqidagi tasavvurlariga ta'siri nuqtai nazaridan tahlil qilishni talab qiladi.

OAV zamonaviy tibbiyot haqidagi ma'lumotlarni keng ommaga tarqatishda muhim rol o'ynaydi. Ular jamoatchilik fikriga ta'sir qilishi, salomatlik va kasalliklarga bo'lgan munosabatni shakllantirishi, yangi tibbiy kashfiyotlar va tavsiyalar haqida xabarot qilish imkoniga egadirlar. Shu bilan birga, OAVda sog'liqni saqlash va tibbiyotdagi yangi tasavvurlar (kasallik haqida ma'lumot, davolanish, dori-darmonlar va h.k.) to'g'risidagi tasdiqlanmagan, to'liq bo'lmagan yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning tarqalishiga sabab bo'lishi ham mumkin, bu o'z o'rnida ularning roli va ta'sirini ilmiy tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Tibbiyot sohasiga tegishli leksik birliklarni aniqlash juda qiyin vazifalardan sanaladi. Buning asosiy sababi "tutashgan", tibbiyot bilan chegaradosh bo'lgan sohalarning leksikasining kengaygan faoliyat chegaralarini aniq belgilashning imkoniyati yo'qligidir.

Tibbiy terminologiya har qanday terminologik tizim kabi shakllanish va qo'llanilish qonuniyatlariga qat'iy bo'ysunadi. Uning asosiy tamoyili – nazariy umumlashtirishning natijasi bo'lgan va hodisaning mohiyatini aniq aks ettiradigan termini yaratishdir. Terminologik apparatning shakllanishiga umumiy lisoniy jarayonlar ham, tizimlilik qonuni, o'z navbatida, lingvistik analogiya qonuni bilan to'qnashadigan lisoniy an'ana qonuni, nutqiy iqtisod qonuni muqarrar ta'sir ko'rsatadi [7].

M.N.Chernyavskiyning fikriga ko'ra, tibbiy terminologiya deyarli mingga yaqin yangi terminlar bilan boyib bordi [12]. Darhaqiqat, terminlarning mavjudligi kasallik alomatlarini, bemorning shikoyatlari, qo'yilgan tashxis va davolash natijalarini aniq tasvirlash orqali amalga oshiriladigan tartibli vazifadan dalolat beradi. Muallif tibbiyot nomenklaturasida quyidagi quyi tizimlarni ajratishni taklif etadi:

1. Anatomik va gistologik: tananing turli sohalari va qismlari, organlarining qismlari va to'qimalarining nomlari.

2. Klinik: morfologik o'simtalarning va jarayonlar, kasalliklar va odamning patologik holatlari (kasalliklarning kechishi va alomatlarini, simptomlar, sindromlar, diagnostika, profilaktika, terapevtik va jarrohlik yo'li bilan davolash).

3. Farmatsevtika: dorilar, o'simlik va kimyoviy mahsulotlar nomlari, retsept yozmalari [13].

V.V.Ivanov tibbiyot terminologiyasi borasida quyidagicha tasniflashni taklif qiladi:

kasalliklar nomlari;

kasalliklar qo'zg'atuvchilarining belgilari;

kasallik sindromlarining nomlari;

kasalliklarning diagnostik alomatlarini nomlari;

dorilarning nomlari;

anatomik tushunchalarning nomlari;

sun'iy organlarning nomlari;

davolanish va tashxis qo'yish;

asboblarning nomlari;

o'simtalarning nomlari;

hujayra nomlari [6].

I.V.Motchenko tadqiqotida tibbiy tushunchalarni ifodalash jarayoni tegishli izchillikdagi mohiyatlar majmui darajasida taqdim qilingan kasallik bilan aniqlangan algoritmi keltirib o'tadi:

tashxis;

simptomatika – alomatlar;

profilaktika – oldini olish;

davolash vositalari;

kasallik asoratlari;

tashxis (tashxis qo'yishda kasallik turi, so'ngra laboratoriya tekshiruvlari natijalari, asoratlari qayd etiladi) [9].

Albatta, OAVda tibbiyot terminologiyasi borasidagi ma'lumotlarni shakllantirishda kasalliklar, ularning belgilari, diagnostikasi va davolashni to'g'rilik prinsipiga amal qilish zarurati mavjud. Zero, terminlarni noto'g'ri va noaniq qo'llash aholi o'rtasida tushunmovchilikni keltirib chiqaradi.

OAV orqali tibbiyot terminlarining voqelanishi auditoriya fikriga ta'siri tahlili asosida jurnalistlar va tibbiyot mutaxassislari uchun tibbiy ma'lumotlar sifati va aniqligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilishi zarurati mavjud. Shuning bilan birga, OAV xodimlarini tibbiyot bo'yicha o'qitish, OAV uchun tibbiy terminologiya bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqish, tibbiyot muassasalari va jurnalistlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish shular jumlasidandir.

Quyida gazeta matnlarida voqelangan tibbiyot terminlarini keltiramiz. Albatta, bu terminlarning qo'llanilishi tibbiyot haqidagi axborotni taqdim qilinishi bilan belgilanadi:

O'zbek tilida: *"Hozirgi COVID-19 pandemiyasi fonida ekspertlar SARS-CoV-2 virusi tarqalishining oldini olish uchun birinchi chora sifatida ijtimoiy masofani saqlash va niqob kiyish muhimligini ta'kidlamogda"*;

"Yaqinda o'tkazilgan tadqiqot grippga qarshi emlash mavsumiy epidemiyalar davrida kasallikning oldini olishda 60% samarali ekanligini aniqladi";

"Mutaxassislar aholi orasida ruhiy salomatlik muammolari, ayniqsa, pandemiya tufayli kuchaygan ruhiy tushkunlik va xavotirlik buzilishlari kontekstida ko'payganini ta'kidlamogda".

Rus tilida: *"Органы общественного здравоохранения призывают к увеличению финансирования программ профилактики хронических заболеваний, таких как диабет и гипертония"*;

"Новое клиническое исследование, опубликованное в "New England Journal of Medicine" демонстрирует обещающие результаты экспериментального лечения альцгеймера";

"Специалисты подчеркивают рост проблем с ментальным здоровьем среди населения, особенно в контексте депрессии и тревожных расстройств, усугубленных пандемией" va h.k.

Guvohi bo'lishimiz mumkinki, ushbu gazetadan keltirilgan misollarda tibbiyot terminlarni voqelanishi axborotni turli ko'rinishda taqdim qilinganligidadir. Unda sog'liqni saqlashning dolzarb muammolari, tadqiqotlar, kasallik nomlari, simptomlarining berilishi kuzatiladi.

Xulosa. Sog'liqni saqlash borasidagi yangilik yoki tahliliy maqolalarda terminlar auditoriya tomonidan ma'lumotni aniq va to'g'ri tushunilishini ta'minlashga xizmat qilishi kerak. Zero, OAV matnining asosiy xususiyati bu – axboriylikdir. Ana shu axboriylik xususiyati doimiy ravishda ularni nafaqat turli mamlakatlarda sodir bo'layotgan voqea-xodisalar bilan, balki aholini salomatligini saqlash, turli yuqumli kasalliklarning tarqalishi, emlash, kasalliklarning oldini olish va sog'lom turmush tarzi kabi

muhim masalalari haqida xabardor qilishda muhim rol o'ynaydi. Taqdim etilayotgan ma'lumotlarning sifati va ularning aniqligi aholi salomatligini yaxshilashga xizmat qilishi lozimdir.

Shunday qilib, tibbiy terminologiyaning axborot manbalarida aks etishi aholining sog'lomlashtirish va salomatlik haqidagi tasavvuriga ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Абдулхайрова Ф.И. Ўзбек тилида тиббиёт атамаларининг метафорик манзараси: Филол. фан. б. фалс. док... дисс. – Тошкент, 2021.
2. Арнаудов Г.Д. Медицинская терминология на пяти языках (Latinum-русский-english-Francais-deutsch): – София: Медицина и физкультура, 1979. – 943 с.
3. Артикова М.Р. Медиаматнда прецедентлик феноменининг лингвомаданий аспекти (ўзбек ва испан газеталари мисолида): Филол. фан. б. фалс. док... дисс. – Тошкент, 2022.
4. Арутюнова Н. Д. Предложение и его смысл. – Москва: Наука, 1976.
5. Гегель Г.В. Эстетика. Т. 1. – Москва: Наука, 1968.
6. Иванов В.В. Семантические особенности медицинских терминов (на материале нем. яз.): Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1996.
7. Извекова Т.Ф., Грищенко Е.В., Гусева С.Н., Савватеева Г.А. Деривационный аспект формирования русской медицинской терминологии на основе латинских терминологических элементов // Педагогические науки. № 4 – 2013.
8. Мадвалиев А. Тиббиёт терминологиясининг соҳавий ва изоҳли луғатларда берилишига доир // Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2017.
9. Мотченко И.В. Основные тенденции в формировании английской медицинской терминологии: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Москва: МПГУ, 2001.
10. Қосимова Ф.Х. Ўзбек тилшунослигида тиббий терминологиянинг таракқиёт тенденциялари // НамДУ илмий ахборотномаси. 2020 йил, – № 3. – Б.413.
11. Тешабаева Д.М. ва бошқ. Журналистика. III жилд. Медиалингвистика ва тахрир. – Тошкент: Ozbekiston, 2019.
12. Чернявский М. Н. Краткий очерк истории и проблем упорядочения медицинской терминологии // Энциклопедический словарь медицинских терминов: в 3 – х томах. Около 60 000 терминов / гл. ред. Б. В. Петровский. – Москва: Советская энциклопедия, 1982.
13. Чернявский М.Н. Латинский язык и основы медицинской терминологии. – Москва: ЗАО “ШИКО”, 2007.